

MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIK O‘ZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR

Madumarov Umarjon Toxir o‘g‘li

Ilmiy rahbar: Numonova Mashxura Qobiljon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti

*Ingliz filologiyasi, o‘qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti
Filologiya va tillarni o‘qitish ingliz tili yo‘nalishi 207-guruh talabasi
madumarovumarjon5@gmail.com*

Annotatsiya: Maqolada yurtimizda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, do‘stlik muhitini va ko‘p millatli katta yagona oila tuyg‘usini mustahkamlash, yoshlarni vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash yo‘lida amalga oshirilgan ishlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, xalqaro bag‘rikenglik kuni, xalqaro do‘stlik kuni, Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishi buyicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Strategiyada beshinchi yo‘nalish sifatida «*Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yunalishlar*» belgilandi. Bu ham yurtimizda fuqarolarimiz xavfsizligi, millatlar va diniy bagrikenglikka berilayotgan ulkan e‘tibordan dalolat beradi.

Yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari hamjihatlikda, bir oila farzandidek yashab, mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib kelmoqdalar. Bag‘rikenglik bu - o‘zaro hurmat, bir-birini anglash, tushunish va qabul qilish demakdir. Yer yuzidagi turli madaniyatlariga hurmat bilan yondashish, tushunishga bag‘rikenglik ta‘rifi beriladi. U bilim, samimiyat, vijdon va e‘tiqod natijasida yuzaga keladi. Bag‘rikenglik faqat ma‘naviy burch bo‘lib qolmay, siyosiy va huquqiy ehtiyoj sanaladi. Eng asosiysi, bag‘rikenglik natijasida tinchlik ta‘minlanadi, turli nizolar, u bor bo‘lsa, urushlarning kelib chiqishiga to‘sqinlik qiladi. Jamiyatda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta‘minlash, do‘stlik muhitini va ko‘p millatli katta yagona oila tuyg‘usini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma‘rifiy aloqalarni kengaytirishga yo‘naltirilgan keng miqyosdagi ishlar davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining barcha

jabhalarida O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan xalqlar va ularning manfaatlar bilan bog‘liq masalalar birinchi navbatda turadi.

Taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo‘lgan bag‘rikenglik borasida 1995-yil 16-noyabrda BMT tizimida Fan, ta‘lim va madaniyat sohasida ixtisoslashgan tashkilot (YUNESKO) bosh konferensiyasining 28-sessiyasida «Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi» qabul qilindi. Deklaratsiyada irqi, jinsi, kelib chiqishi, tili, dinidan qat‘iy nazar, bag‘rikenglikni targ‘ib etish, inson huquq va erkinliklariga hurmat bilan qarash kabi majburiyatlar belgilab qo‘yilgan. Uch ming yillik tariximiz shundan guvohlik bermoqdaki, oliyanoblik va insonparvarlik, millatlararo totuvlikka intilish xalqimizning eng yuksak fazilatlaridan hisoblanadi. Bu boradagi an‘analar avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng nafaqat mamlakatga nom bergan o‘zbek xalki, balki shu muqaddas zaminda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarining ham millat sifatida saqlanib qolishi va rivojlanishi uchun teng sharoit va imkoniyatlar yaratish masalasiga alohida e‘tibor qaratdi. Jumladan, ko‘pmillatli diyorumizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash va yanada mustahkamlashning muhim omili bo‘lgan millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta‘minlash, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millatga mansub aholining ma‘naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan milliy-madaniy markazlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda millatlararo munosabatlarni takomillashtirish uchun birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan 1992-yil 13-yanvarda Respublika baynalminal madaniyat markazi tashkil etildi. Uning asosiy vazifasi vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, shahar va tuman hokimliklari, shuningdek, jamoat tashkilotlari bilan birgalikda millatlararo munosabatlar sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishida qatnashish, milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va o‘ziga xos an‘ana, urf-odat va rasm-rusumlarni tiklash hamda rivojlantirishda ularga ko‘maklashish deb belgilandi.

Millatlararo munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish borasida O‘zbekiston o‘ziga xos tajriba orttirdi. Bunda faqat milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini tarbiyalash, millatlarning tili, madaniyati, urf-odatlarini asrab-avaylash bilan cheklanmaslik, balki mamlakatdagi barcha millatlarning umumiy birdamligiga erishish tamoyiliga amal qilindi. BMT bosh assambleyasining qaroriga ko‘ra, 1997-yildan buyon 16-noyabr har yili butun dunyoda “Xalqaro bag‘rikenglik kuni” sifatida nishonlanib kelinadi. Bu sanani O‘zbekistonda nishonlash ham yaxshi an‘anaga aylangan. Mazkur sanani munosib nishonlash maqsadida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi tomonidan qator hamkor tashkilotlar bilan birga Xalqaro bag‘rikenglik kuniga bag‘ishlab yurtimizda 2021-yil 15-21 noyabr kunlari “Ma‘rifat va millatlararo bag‘rikenglik” shiori ostida “Bag‘rikenglik haftaligi” o‘tkazildi.

Haftalik davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasi 3-sonli maktabning yosh o‘quvchilari tomonidan “Bag‘rikeng O‘zbekiston - umumiy uyimiz!” shiori ostida turli turli millat vakillari tomonidan milliy asbob uskanlari, milliy kiyimlari, milliy qo‘shiqlar ko‘rgazmalari tashkil etildi bundan ko‘zlangan maqsad mamlakatimizda yashayotgan turli millat vakillari qalbida yagona Vatan tuyg‘usini yanada mustahkamlash, millatlararo totuvlikni barqaror etish, yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik va milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, yurtimiz xalqlarining o‘ziga xos azaliy urf-odatlari va madaniyatlarini rivojlantirish. 16-noyabr kuni A.Navoiy nomidagi kino san‘at saroyining katta zalida “Do‘stlikni tarannum etgan yurt” nomli hujjatli videofilmning taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Filmning xronometraji 33 daqiqani tashkil qiladi. Film rejissyori G‘aratulla Shukurov tomoshabinlarni ijodiy guruh xodimlari bilan tanishtirdi. G‘.Shukurov o‘z nutqida filmning yaratilishi haqida ma‘lumot berdi. Mazkur film O‘zbekiston Respublikasida millatlararo munosabatlar sohasida yurtimizda olib borilayotgan islohotlarga bag‘ishlangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi tomonidan suratga olindi. Filmning asosiy g‘oyasi yurtimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elat vakillarining tinch-totuv, do‘stlik va ahillikda yashab kelayotgani, mamlakatimizda bu sohada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev rahnamoligida olib borilayotgan milliy siyosat aks ettiriladi.

Prezidentimiz Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida jamiyatimizda millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash borasidagi ishlar izchil davom ettirilishiga alohida to‘xtalib, 30 iyul-“Xalqaro do‘stlik kuni” munosabati bilan yurtimizda 30-iyul “Xalqlar do‘stligi kuni” deb belgilashni taklif etgani va ushbu tashabbus ko‘pmillatli xalqimiz tomonidan ko‘tarinki ruhda kutib olingani bayon etiladi. Shuni unutmaslik kerakki, har qayerda millatlararo totuvlik g‘oyasining ahamiyati anglab yetilmasa, jamiyat hayotida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga keladi, ular tinchlik va barqarorlikka xavf soladi. Bugungi kunda jahonning ayrim mintaqalarida sodir bo‘layotgan milliy nizolar shundan dalolat berib turibdi.

Millatlararo totuvlik g‘oyasini amalga oshirishga g‘ov bo‘ladigan eng xatarli to‘siq - tajovo‘zkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday illat, zararli g‘oya to‘zog‘iga tushib qolgan jamiyat tabiiy ravishda halokatga yuz tutadi. Bag‘rikenglikning muhim yo‘nalishlaridan biri «diniy bag‘rikenglik»dir. Turli din vakillari e‘tiqodidagi mavjud farqlardan qat‘i nazar, ularning yonma-yon, o‘zaro tinch-totuv yashashi hamda har bir diniy ta‘limotga hurmat bilan qarashni anglatadigan mazkur tushuncha, har kim o‘z e‘tiqodiga amal qilishda erkin bo‘lgan holda, bu huquqqa boshqalar ham ega ekanini e‘tirof etishini nazarda tutadi. «Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi»da ta‘kidlanganidek, «Bag‘rikenglik bo‘lmasa, tinchlik bo‘lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo‘lmaydi».

Xalqaro huquqiy hujjatlarda ham e'tiqod erkinligi va diniy bag'rikenglik xalqaro huquq himoyasida ekani ta'kidlanadi. Jumladan, 1948-yili qabul qilingan.«Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ning 18-moddasida «*Har bir inson fikr, vijdon, din va e'tiqod erkinligi huquqiga egadir*», deb ta'kidlangan.

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi huquqiy me'yorlarning qonunchilikka kiritilishi diyorumizda rasmiy faoliyat olib borayotgan barcha din vakillariga katta imkoniyatlar yaratib berdi. Hukumatimiz tomonidan turli diniy tashkilotlarning o'z faoliyatlarini amalga oshirish va mamlakat hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berildi. Jumladan, markaziy televideniya orqali O'zbekiston musulmonlari idorasi ma'naviy-ma'rifiy kursatuvlarni berib borishi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy kabi mashhur allomalarning tavalludiga bag'ishlangan anjumanlarning keng ko'lamda nishonlanishi kabi tadbirlarni aytib o'tish o'rinlidir.

Ayniqsa, haj ibodatini to'la-to'kis va hamjihat holda ado etish uchun barcha sharoitlar yaratilgani tahsinga sazovor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining telegramdagi rasmiy kanali.
2. <https://iiv.uz/news/millatlararo-totuvlik-va-dinlararo-bagrikenglik--yuksalish-poydevori>.
3. Fuqarolik jamiyati asoslari darsliklari.